

Nasoim ul-Muhabbat (II- qism)

Alisher Navoiy

NASOYIM UL-MUHABBAT (DAVOM)

325. ABULHASAN HAKIMIY Q. S.

Ul debdurki, Junayd q. s.din eshittimki, dediki, bir kun Sariy Saqatiy majlisida erdim. Va qalin el bor erdi. Va men borining kichikroki erdim. Sariy soʻrdikim, ne nimadurki, uyquni eltur? Har kishi bir nima dedi. Birav dedikim, koʻp ochligʻ; birav dediki, suni oz ichmak. Chun navbat manga yetti, dedimki [har bir nafs qilmishidan Allohning ogohligi va bundan qalbning voqif ekanligidur] ⁽¹⁾. Dedi: [ofarin, oʻgʻilginam!] ⁽²⁾. Va meni yaqinigʻa oʻlturtti. Va ul kundin beri har yerdaki borman, barchagʻa muqaddammen. Va ham Hakimiy debdurki, mashoyixdin baʼzining holin Junayd q. s.din soʻrdumki, anga iqtido qilsa boʻlgʻaymu? Dedikim, agar anda bir parhezkorligʻ va halol qut talabi toparsen, iqtido qilsa boʻlur va agar topmassen, ani qoʻygʻil!

326. ABU ALI HUSAYN B. MUHAMMAD AKKOR R. T.

Ul shayx Abu Abdulloh Xafif ashobidindur. Va shayx Abu Ishoq Goziruniyning shayxi. Debdlarki, Akkor Gozirungʻa yetti, mashoyix aning qoshigʻa yigʻildilar. Va shayx Abu Ishoq hanuz tifi edi va mashoyix bila kelib erdi. Dedilarki, bu goʻdak Qurʻonni xub oʻqur. Anga buyurdikim, Qurʻon oʻqudi. Va anga xush keldi. Ani mashoyixdin tiladi va Sherozgʻa eltti va vaqt mashoyixidin va shayx Abu Abdulloh Xafif ashobidin hadis samoʻi buyurdi. Va aning bila Iroq va Hijozgʻa musosrarat qildi. Va aning suhbat barakatidin yetishtti, ul yergakim yetishdi. Husayn uch yuzdin soʻngra dunyodin oʻtti. Va qabri Shayx Abu Abdulloh Xafif ravzasi eshikidadur, Sherozda.

327. ABU ISHOQ IBROHIM SHAHRIYOR GOZIRUNIY Q. T.

Forsiyulasldur va mavlidu manshaʻi Gozirun navardi. Shahriyor shayxning otasi musulmon boʻldi. Va shayxning valodati otasining islomiy zamonida erdi. Va shayxning intisobi tasavvufda Shayx Abu Ali Husayn b. Muhammad Firuzobodiyi Akkorgʻadur. Va hadis ashobi suhbatigʻa yetibdur. Va barchadin hadis rivoyati va osori bor. Va Makkada Shayx Abulhasan Abdulloh Jahzamiy Hamadoniyni koʻrub erdi. Va andin rivoyat qilibdurki, Zunnun q. s. debdurki, [sen ishga kirish. Chunki oz rizqqa qanoat qilish kam amAlii ham poklaydi] ⁽¹⁾. Vuzarodin biriga Shayx bila irodade voqeʻ erdi. Har necha jahd qildikim, Shayx andin bir nima qabul qilgʻay, qilmadi. Shayxga iʻlom qildikim, har necha jahd qildimki, mandin bir nima qabul qilgʻaysen, qilmading, necha banda ozod qildim va savobin sanga bagʻishladim. Shayx q. s. javob yubordikim, sening risolatingni manga yetkurdilar va yaxshiliging shukrin ado qildim, lekin bandalar ozod qilmoq mening mazhabim emas, balki mening mazhabim ozodlarni banda qilmoqdur rifqu ehson bila. Shayx r. a. Hazrat Risolat s. a. v.ni tushda koʻrub soʻrdikim, [tasavvuf nima?] ⁽²⁾. Rasul s. a. v. dedikim, [tasavvuf daʼvrlarni tark etish va maʼnolarni yashirishdir] ⁽³⁾. Yana soʻrdikim, [tavhid nima?] ⁽⁴⁾. Javob toptikim, [koʻnglingdan kechgan va xayolingdan oʻtgan har narsadan Alloh subhonahuning boshqa ekanligidir; Tavhid shak-shubhadan, shirkdan, aybu nuqsondan poklashdir] ⁽⁵⁾. Yana soʻrdikim, [aql nima?] ⁽⁶⁾. Javob toptikim, [aqlning eng pasti dunyoni tark qilish, yuqori darajasi Alloh taoloning zoti xususida